MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

Olimpiada topshiriqlari (III bosqichi)
ONA TILI VA ADABIYOTI 9

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Imloviy jihatdan **to‘g‘ri** yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.

   A) *xayolot, uchchala, me’yor*

   B) *muovin, to‘rtovlon ta’minot*

   C) *hayotbaxsh, kongress, me’zon*

   D) *ibtidoiy, taxayyul, ta’maddi*

2. Ezopning **qaysi masalida** ayrim ishyoqmas, havoyi kishilarning maqsadlariga tez va oson yetishish uchun turli nayranglar o‘ylab topishlari, ammo kutilmaganda pand yeb qolishlari haqidagi fikrlar **bayoni aks etgan?**

   A) *“Bo‘ri bilan laylak”*

   B) *“Ustiga tuz ortilgan eshak”*

   C) *“Eshak va baqalar”*

   D) *“Kiyik va tokzor”*

3. *Odamzodni yaratibdi Alloh serkaram. Taqdirin ham belgilamish. Biroq ayni payt. Odamzotni ozod qo‘ymish sinamoq uchun.*

   Ushbu gapda ko‘makchining qanday **ma’no turi** qatnashgan?

   A) *vosita* B) *sabab*

   C) *maqsad* D) *holat*

4. Alisher Navoiyning **“Farhod va Shirin”** dostonida Farhodning o‘limiga qanday **sabab** ko‘rsatiladi?

   A) *Uning dushmanlari tomonidan zaharlanishi*

   B) *Tog‘ni qazib suv chiqarayotgan paytda halok bo‘lishi*

   C) *Shirinning vafot etganligi haqidagi yolg‘on xabardan qayg‘uga botishi*

   D) *Shohning unga qarshi qilgan fitnasi orqali o‘ldirilishi*

5. Berilgan gaplarning qaysi biri **qo‘shma gap hisoblanmaydi?**

   A) *Diyonat va nomus har oilaning saodati va intizomi uchun emas, balki bir mamlakatning saodati va barqarorligi uchun ham zarur va lozimdir.*

   B) *Qilmoq bila parvarish tikan gul bo‘lmas, ham tarbiyat ila zog‘ bulbul bo‘lmas.*

   C) *To‘g‘ri so‘z har narsadan yaxshi, biroq yolg‘onchi va chaqimchidan eshitilgan to‘g‘ri so‘z ham yoqimsizdir.*

   D) *Shahar va qishloqlarda o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bunyodkorlik ishlari avj olmoqda.*

6. Gulxaniyning **"Zarbulmasal"** asaridagi **"Maymun bilan Najjor"** naqliga mos keladigan maqol qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

   A) *sabrning tagi sariq oltin.*

   B) *avval o‘yla, keyin so‘yla.*

   C) *chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin.*

   D) *ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar.*

7. Qaysi javobdagi ajratib ko‘rsatilgan so‘z o‘rnida **kuchli** so‘zini **qo‘llab bo‘lmaydi?**

   A) *E, qoyilman, juda <u>baquvvat</u> yigit ekansiz, bir o‘zingiz to‘rt kishining ishini qildingiz-a!*

   B) *Bolalar qurutni og‘izlariga solishdi, ammo u juda <u>qattiq</u> bo‘lganidan tishlari og‘rib ketdi.*

   C) *Tog‘am, haqiqatan ham, <u>zabardast</u>, yelkasi yerga tegmagan polvon bo‘lganlar.*

   D) *<u>Qudratli</u> armiyamiz bor ekan, chegaramiz xavfdan xoli, fuqarolarimiz xotirjam.*

8. Qaysi javobda **vergul** tinish belgisi tushirib qoldirilgan?

A) *Do‘stginam, qo‘llaringni ber,*
Yuragimga bosayin birpas.

B) *Sevgilim, ko‘zlaring to‘lmasin yoshga,*
Tongda oyog‘ing qo‘y baland bir toshga.

C) *Sen san’at shaydosi, she’r diyorisan,*
Qancha chertilmagan torlaring bordir.

D) *Kel bir zumga dunyoni unut,*
Ko‘tarayin seni balandga.

9. Qaysi gapda **chiziqcha** bilan yozish imlosiga oid **xatolik mavjud?**

A) *Piyolani inson shuning-chun, o‘par doim peshonasidan.*

B) *Ayol kishiga, avvalo, ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi.*

C) *Bog‘imizga sabzavotlar, xilma-xil mevali daraxtlar ekkanmiz.*

D) *Bolalarning qiy-chuvlashgani kattalarga xalaqit bermasa ham, eshitilib turardi.*

10. Anton Povlovich Chexovning **"Xameleon"** asari haqida to‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni aniqlang.

A) *Mansabdorlarning oddiy xalqqa past nazar bilan qarab, ularning holidan yetarlicha xabar olmayotgani qoralangan.*

B) *Hikoyada mansabga qarab muomalasini o‘zgartiruvchi kishilarning ikkiyuzlamachiligi qoralangan.*


C) *Odamlarning o‘z uy hayvonlarini qarovsiz qoldirayotgani tanqid ostiga olingan.*

D) *It boqish zodagonlik belgilaridan biri ekanligiga urg‘u berilgan.*


2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.

11. O‘zaro **ma’nodoshlik** hosil qila oladigan so‘zlarni aniqlang.


A)




B)



C)



D)



12. Qaysi gapda **qo‘shimcha** qo‘llash bilan bog‘liq uslubiy xatolik yuz bergan?

A) *Adhamjon do‘stini kutaverib, kunning kech bo‘lganini sezmay qoldi.*

B) *Shoirning asarlari xalq og‘zaki ijodidan oziqlangan holda sayqallanib boraveradi.*

C) *Nabiralarim, aslo unutmang: maqtanchoqlilik insonni obro‘sizlantiradi.*

D) *Rahbarlarning bu voqealarga e’tiborsizlik bilan munosabatda bo‘layotgani juda achinarli.*

13. Quyidagi gapda alohida ajratib ko‘rsatilgan so‘zning bog‘lanishi haqidagi **xato** hukmni aniqlang.

To‘g‘riso‘zlik, xushxulqlik, mehnatsevarlik kabi xislatlarlar ulug‘ insoniy fazilatlardir.

A) *Hokim qismga kelishik yordamida bo‘g‘lanmagan.*

B) *Hokim qismga kelishik va ko‘makchilarsiz bog‘langan.*

C) *Hokim qismga ko‘makchi yordamida bog‘langan.*

D) *Teng bog‘lanish (so‘z qo‘shilmasi)ni yuzaga chiqargan.*

14. Qaysi javobda Abdulla Qahhorning **“Bemor”** hikoyasidagi **Abdug‘aniboy** obrazi bilan bog‘liq voqealar bayoni to‘g‘ri berilgan?

A) *Qo‘l ostida ishlovchi xodimining boshiga musibat tushsa ham, unga yordam berishdan bosh tortadi.*

B) *Yoshligidan otasidan ko‘rgan noto‘g‘ri tarbiyasi tufayli oilasiga, tabiatga ziyon yetkashishni o‘ziga odat qiladi.*

C) *Ho‘kizini yo‘qotib arzga kelgan fuqaroga nopisandlik bilan munosabatda bo‘ladi, hatto uni sizlashga tili bormay murojaat qiladi.*

D) *O‘zi o‘lim vahimasidan behad qo‘rqsada, yosh juvonga ozodlik evaziga mozorda choy qaynatib kelish shartini qo‘yadi.*

15. Berilgan gapda qatnashgan **otlar** haqidagi **xato hukmni** toping.

Ko‘ngli shodliklarga to‘lgan, yam-yashil bog‘dagi gullarning go‘zalligiga mahliyo bo‘lgan qizaloq bugungi kunining naqadar ajoyib o‘tganligini hammaga quvonch bilan aytardi.

A) *Narsa va o‘rin-joy otlari qatnashgan.*

B) *Sodda tub va yasama mavhum otlar qatnashgan.*

C) *Otlarning tuzilishiga ko‘ra bir turi qatnashgan.*

D) *Otlar faqat ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida qo‘llangan.*

16. Uilyam Shekspir qalamiga mansub **“Hamlet”** fojiasi voqealari qaysi javobda **xato** berilgan?

A) *Xiyonatkor Klavdiy Hamletdan qutulish uchun Poloniyning o‘g‘li mohir qilichboz Laertni shahzoda bilan duelga gijgijlaydi.*

B) *Hamlet onasining xonasida gilam ortida bekinib turgan Poloniyni o‘ldirib qo‘yadi.*

C) *Poloniyning o‘g‘li Laert Hamletni duelga chaqiradi va sal yaralansa ham, o‘lishi uchun qilichini zaharlab qo‘yadi.*

D) *Hamlet zaharlangan sharobni ichib qo‘yganligi uchun asar so‘nggida vafot etadi.*

17. Qaysi javobda **"Alpomish"** dostoni voqealari haqida **to‘g‘ri** ma'lumot berilgan.

A) *Hakimbek otasidan sipohlik ilmini o‘rganganidan so‘ng xalq uni Alpomish deb atay boshlaydi.*

B) *Boybo‘ri davlat xazinasi kamayib ketganligi uchun ukasi Boysaridan zakot olmoqchi bo‘ladi.*

C) *Akasidan zakot berish haqida xabar olgan Boysari bu voqeaning asosiy sababini o‘zining o‘g‘ilsizligi bilan bog‘laydi.*

D) *Qaldirg‘ochoy yakka-yu yagona akasidan ayrilib qolmaslik uchun Oybarchindan kelgan maktubni yashirib qo‘yadi.*

18. Abdulla Qahhorning **“O‘g‘ri”** hikoyasining **asosiy maqsadi** to‘g‘ri talqin qilingan javobni toping.

A) *Har bir jamiyat uchun Qobil bobo kabi soddadil insonlar kerak ekanligi ta'kidlangan.*

B) *Qiyinchilik davrida ocharchilikning kuchaygani tufayli o‘g‘rilar soni ko‘payib ketgani haqida yozilgan.*

C) *Xalqning turmush darajasi og‘irlashgan kunlarda Egamberdi kabi insonlarning borligi ulug‘langan.*

D) *Insonlarning soddaligidan foydalangan amaldorlarning poraxo‘rligi tanqid ostiga olingan.*

19. Gapdagi so‘zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog‘lanishi **to‘g‘ri** ko‘rsatilgan javobni aniqlang.

Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatimiz kelajagi uchun javobgarlikni his qilishga qodir, barkamol va maqsad sari intiluvchan, serg‘ayrat avlodni tarbiyalash borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

A) *bilim va ko‘nikma, zamonaviy avlod*

B) *vazifalar belgilab berildi, barkamol tarbiyalash*

C) *bir qator vazifalar, kelajagi uchun belgilab berildi*

D) *mamlakatimiz kelajagi, intiluvchan avlod*

20. *"Siz ham chanqadingiz-a, otaxon?! – dedi-da, keyin menga o‘girilib, – Ukaginam, bitta choy damlab kelmaysanmi-a?! Chanqab o‘ldi-ku odam", – deya ko‘zini qisib qo‘ydi.*

Ushbu parcha haqidagi **to‘g‘ri** hukmlarni aniqlang.

1. *Ritorik so‘roq gap ishtirok etgan.*
2. *Uyushiq bo‘laklar ishtirok etgan.*
3. *Undalma ishtirok etgan.*
4. *Kirish so‘z ishtirok etgan.*
5. *Shaxsi ma'lum gap ishtirok etgan.*

A) *2, 3, 4* B) *1, 2, 3*
C) *2, 4, 5* D) *1, 3, 5*

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.

21. Abdulla Oripovning **"Sohibqiron"** dramasi qahramonlariga **to‘g‘ri** ta'rif berilgan javobni aniqlang.

1. **Amir Husayn** – *Chingiziy ekanligidan nafratlanib yuruvchi, kayf-safo uchun saroylar qurgan, omadsizlikka uchrasa, taqdirni ayblovchi kaltabin hukmdor.*

2. **Qosimbek** – *Amir Temurning harbiy yurishlari vaqtida u bilan shaxmat o‘ynaydigan Shatranj ustasi.*

3. **Mir Said Baraka** – *Sohibqironning janglarda g‘alaba qozonishi uchun chin dildan duo qilgan va va uni ruhlantirgan piri komil.*

4. **Yildirim Boyazid** – *boshqalarning hiylasiga aldanib, Amir Temurga maktub yozgan va bu ishi bilan urushga sabab bo‘lgan kaltafahm shoh.*

A) *1, 3, 4* B) *1, 2, 3*
C) *faqat 3, 4* D) *faqat 2, 4*

22. Berilgan gapda haqida **to‘g‘ri** hukmni aniqlang.

Halollik yo‘lida harakatlanayotgan insonlar har doim hayotlarida muvaffaqiyatga erishishadi. Halolikka erisha oladigan insonning qalbi pok, atrofidagilarga xiyonat qilmaydi, ularga yordam qo‘lini cho‘zadi.

A) *Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning shakldoshligi ro‘y bergan.*

B) *Sintaktik va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning shakldoshligi ro‘y bergan.*

C) *So‘z yasovchi qo‘shimchalarning o‘zaro shakldoshligi ro‘y bergan*

D) *So‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning shakldoshligi ro‘y bergan.*

23. Quyidagi berilgan gaplarning har ikkalasida ishtirok etgan **fe'l shakllarini** aniqlang.

I. *Qanoat qudratli qilur insonni,*
Ogohlantirib qo‘y ochko‘z nodonni.

II. *Nodonlardek yuzlab so‘zni qilma qator,*
Donolardek bir so‘z degil, lek ma'nodor.

1) nisbat qo‘shimchasini olgan fe'l;
2) ravishdosh; 3) yasama fe'l;
4) II shaxs buyruq maylidagi fe'l;
5) o‘timsiz fe'l.

A) *1, 3* B) *2, 4* C) *3, 4* D) *2, 5*

24. Quyidagi parcha haqidagi **xato** hukmni aniqlang.

So‘nggi yillarda yoshlarimizning ijtimoiy tarmoqlarga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda, shuning uchun kitob o‘qishga qiziqadiganlar kamaygan.

A) *Egalar bir turkumdagi so‘zlar bilan ifodalangan.*

B) *Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchi egaga tobelangan.*

C) *Vositali to‘ldiruvchi kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri tobelangan.*

D) *Kesimning tuzilishiga ko‘ra ikki turi ishtirok etgan.*

25. Said Ahmadning **“Ufq”** romani qahramonlariga **to‘g‘ri** ta’rif berilgan javobni aniqlang.

1. **Tursunboy** – *bir lahzalik qo‘rquv sabab butun umr vijdon azobida o‘tgan obraz.*

2. **Ikromjon** – *urushdan xiyonatkorlarcha qochib kelgan farzandi tufayli el-yurt oldida isnodga qolgan ota.*

3. **Jannat xola** – *nobakor o‘g‘lini xalq oldida uzr so‘ratmoqchi, diliga insof solmoqchi bo‘lgan, ammo buni uddalay olmay vafot etgan obraz.*

A) *1, 2, 3* B) *2, 3* C) *faqat 3* D) *1, 3*

Matnni o‘qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Kallibri qushi dunyodagi eng kichik va eng tezkor qushlardan biri hisoblanadi. Ular asosan Shimoliy va Janubiy Amerikada uchraydi. Bu qushlar evolyutsiya jarayonida yuqori darajada moslashuvchanlikka ega bo‘lgan. O‘ziga xos tana tuzilishi va xatti-harakatlari bilan boshqa qushlardan farqlanadi. Bugungi kunda kallibrilar 300 dan ortiq turga ega bo‘lib, tropik o‘rmonlardan tortib tog‘li hududlargacha bo‘lgan muhitda yashaydi. *[1]Kallibri qushi o‘zining kichik o‘lchami va yuqori harakatchanligi bilan ajralib turadi.* Ularning tanasi odatda 5-20 cm uzunlikda bo‘lib, vazni 2-20 grammni tashkil etadi. Kichik tana ularga havoda muvozanatni saqlash va katta manyovrlar qilish imkonini beradi. Kallibrilarning qanotlari o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, ular soniyasiga 50-80 martagacha qanot qoqadi. *[2]Bu ularni havoda qimirlamasdan turishga va hatto orqaga uchishga qodir qiladi.* Bu esa boshqa qushlar orasida noyob hisoblanadi. Tumshug‘i uzun va ingichka bo‘lib, gul nektariga oson yetib borish uchun moslashgan. Kallibrilarning ko‘zlari yaxshi rivojlangan bo‘lib, ular turli ranglarni va hatto ultrabinafsha nurlarni ham ko‘ra oladi.

[3]Kallibri qushi asosan gul nektari bilan oziqlanadi. Ba'zida kichik hasharotlar va o‘rgimchaklarni ham iste'mol qiladi. Ular guldan gulga uchib, nektar yig‘adi va shu jarayonda o‘simliklarning changlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu ularni o‘simliklarning ko‘payishi va ekotizimning barqarorligini ta'minlashda asosiy vositachilardan biriga aylantiradi. *[4]Ularning skeleti yengil, ammo mustahkam bo‘lib, suyaklarining aksariyati ichi bo‘sh.* Qanot mushaklari ularning tana og‘irligining 30% gacha qismini tashkil qiladi. Yuragi juda katta va tez uradi – dam olish holatida daqiqasiga 250 marta, uchish paytida esa 1200 martagacha yetishi mumkin. Bunday tezkor yurak urishi energiya ishlab chiqarishni maksimal darajada oshiradi.

26. Matn mazmunida **aks etgan** ma’lumotni aniqlang.

A) *Kallibri va asalari o‘xshash hayotiy funksiyaga ega.*

B) *Kallibri asosan o‘rmon va tog‘larga in quradi.*

C) *Kallibrining tana tuzilishi qulay oziqlanishga imkon beradi.*

D) *Kallibri uchish paytida ko‘proq energiya sarflaydi.*

27. Raqamlab ko‘rsatilgan qaysi gap matnningmazmuniy tuzilishida **uslubiy xatolikni** yuzaga keltirgan?

A) *4* B) *2* C) *1* D) *3*

28. Matn mazmuniga **xos bo‘lgan** ma’lumotni aniqlang.

A) *Kallibri narsalarning rang-tusini payqay oladi.*

B) *Kallibrining qanotlari uning umumiy tanasidan og‘irroq.*

C) *Kallibri qushini faqat Amerika qit’asida uchratish mumkin.*

D) *Massa va hajmdagi mutanosiblik uchish tezligini belgilaydi.*

She'riy parchani o'qing va quyidagi savollarga javob bering.

***

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

O'qdayin qomatimizni qora qoshlig'lar uchun
Muttasil yo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

Meni yozg'urma: "Sevar" debki, mening haddim emas,
Ul tamanno qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul.

29. Lutfiy qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi **xato** hukmni aniqlang.

A) *Baytda oshiqni shaydo qiladigan ham yoki uni abgor holga keltiradigan ham aynan ko'ngil ekanligi aks etgan.*

B) *Baytda ma'shuqaning tik qomati egik bo'lishiga ko'ngil sababchi ekanligi bayon qilingan.*

C) *Baytda oshiq sevgani uchun aybdor emasligi, aksincha, buni ham ko'ngil xohlayotgani bayon etilgan.*

D) *Baytlardagi "Xor-u rasvo" hamda "Muttasil yo" so'zlari orqali oshiqning holati yomonlashayotganligi aks etgan.*

30. Lutfiy qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi **to'g'ri** hukmni aniqlang.

A) *Mutlaq qofiya qo'llangan.*

B) *Istiora she'riy san'ati qo'llangan.*

C) *Radif mavjud emas.*

D) *Undosh tovush raviy vazifasini bajargan.*